

Oriental Journal of Education



THE FORMATION OF THE IDEA OF AN INDIVIDUAL APPROACH IN THE HISTORY OF PEDAGOGICAL THOUGHT AND ITS MODERN INTERPRETATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Shahlo Jurayeva

Independent Researcher, Fergana State University

Science ID: MFR-0926-0244

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: individual approach, individualization, differentiation, personalized learning, upbringing process.

Received: 11.09.26

Accepted: 12.09.26

Published: 13.09.26

Abstract: The article systematically analyzes the stages in the formation of the idea of an individual approach in the history of pedagogical thought and substantiates its contemporary interpretation in the process of upbringing. From a comparative perspective, the study examines the development of Western didactics from the principle of conformity to nature to the concept of differentiated instruction, as well as the tradition of approaching students according to their individual nature and characteristics in the Eastern pedagogical heritage. The author substantiates the conceptual distinction between individualization in the educational process and an individual approach in the process of upbringing and demonstrates the need to take this distinction into account in the content of teacher education. The findings confirm the necessity of developing the individual approach not as a technological skill, but as a professional stance of the teacher.

INDIVIDUAL YONDASHUV G'OYASINING PEDAGOGIK TA'LIMOTLAR TARIXIDA SHAKLLANISHI VA UNING TARBIYA JARAYONIDAGI ZAMONAVIY TALQINI

Shahlo Jo'rayeva

Far'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Ilmiy identifikatsiya raqami: MFR – 0926 - 0244

Far'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: individual yondashuv, individuallashtirish, tabaqalashtirish, shaxsiylashtirilgan ta'lim, tarbiya jarayoni.

Annotatsiya: Maqolada individual yondashuv g'oyasining pedagogik ta'limotlar tarixida shakllanish bosqichlari tizimli tahlil

qilingan va uning tarbiya jarayonidagi zamonaviy talqini asoslangan. G'arb didaktikasidagi tabiatga muvofiqlik tamoyilidan tabaqalashtirilgan ta'lim konsepsiyasigacha bo'lgan yo'l hamda Sharq pedagogik merosidagi shogird tabiatiga qarab yondashish an'anasi qiyosiy o'rganilgan. Muallif ta'lim jarayonidagi individuallashtirish bilan tarbiya jarayonidagi individual yondashuv o'rtasidagi mazmuniy tafovutni asoslaydi va bu tafovut bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash mazmunida hisobga olinishi zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari individual yondashuvni texnologik ko'nikma emas, balki o'qituvchining kasbiy pozitsiyasi sifatida shakllantirish zarurligini tasdiqlaydi.

ФОРМИРОВАНИЕ ИДЕИ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПОДХОДА В ИСТОРИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ МЫСЛИ И ЕЁ СОВРЕМЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В ПРОЦЕССЕ ВОСПИТАНИЯ

Шахло Джураева

Независимый исследователь

Ферганского государственного университета

Научный идентификационный номер: MFR-0926-0244

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: индивидуальный подход, индивидуализация, дифференциация, персонализированное обучение, процесс воспитания.

Аннотация: В статье системно проанализированы этапы формирования идеи индивидуального подхода в истории педагогических учений и обоснована её современная интерпретация в процессе воспитания. В сравнительном аспекте исследованы развитие западной дидактики от принципа природосообразности до концепции дифференцированного обучения, а также традиция индивидуального подхода к ученику с учётом его природных особенностей в восточном педагогическом наследии. Автор обосновывает содержательное различие между индивидуализацией образовательного процесса и индивидуальным подходом в процессе воспитания и показывает необходимость учёта данного различия в содержании подготовки будущих педагогов. Результаты исследования подтверждают необходимость формирования индивидуального подхода не как технологического навыка, а как профессиональной позиции учителя.

Kirish. Individual yondashuv pedagogikaning eng qadimiy va ayni paytda eng ko‘p bahs uyg‘otadigan tamoyillaridan biri hisoblanadi. Uning zarurligi pedagogik tafakkur tarixining hech bir bosqichida inkor etilmagan, biroq mazmuni turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Ba‘zan o‘quvchining tabiiy qobiliyatiga moslashish, ba‘zan o‘quv topshirig‘ini murakkablik bo‘yicha tabaqalashtirish, ba‘zan esa shaxsga hurmat bilan munosabatda bo‘lish sifatida tushunilgan. M.A.Zokirov zamonaviy ta‘lim tizimida individual yondashuvning nazariy asoslari, tarixiy rivojlanishi va adaptiv o‘quv texnologiyalari orqali amalga oshirilishi mumkinligini ko‘rsatadi, biroq bu tadqiqotda tushuncha asosan ta‘lim jarayoni doirasida, ya‘ni bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish nuqtai nazaridan tahlil qilinadi [11; 154]. Ushbu holat shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ilmiy adabiyotda individual yondashuv ko‘pincha didaktik-texnologik tekislikda qoladi, uning tarbiyaviy-axloqiy o‘lchovi esa nisbatan kam yoritilgan. Zamonaviy sharoitda esa masala yangi jihat kasb etdi, umumiy o‘rta ta‘lim tizimiga tarbiyaviy mazmundagi mustaqil o‘quv fanining kiritilishi bilan individual yondashuvni ta‘lim emas, aynan tarbiya jarayoni kontekstida talqin qilish zarurati yuzaga keldi. Maqolaning maqsadi – g‘oyaning tarixiy shakllanish bosqichlarini G‘arb va Sharq pedagogik merosi misolida qiyosiy tahlil qilish hamda uning tarbiya jarayonidagi o‘ziga xosligini ta‘lim jarayonidagi individuallashtirishdan farqlab ko‘rsatishdan iborat.

Mavzuning ilmiy yoritilganlik darajasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, individual yondashuv muammosi turli metodologik pozitsiyalardan turib o‘rganilgan. Xususan, boshlang‘ich ta‘lim metodikasi nuqtai nazaridan olib borilgan tadqiqotda individual va differensial yondashuvlarning integratsiyasi ko‘rib chiqilgan va bu integratsiya orqali darslarni rejalashtirish, baholash hamda differensial topshiriqlar tuzish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan, biroq bu yerda ham urg‘u ta‘lim natijalariga qaratilgan [13; 4]. Bu xulosa shuni anglatadiki, amaliy pedagogika sohasida individuallashtirish deyarli har doim o‘lchanadigan ta‘lim natijasi bilan bog‘lab tushuniladi, tarbiyaviy natijaning o‘lchash qiyinligi esa uni ilmiy e‘tibordan chetda qoldiradi. Xorijiy tadqiqotlarda ham shunga o‘xshash tendentsiya kuzatiladi: olimlar R.Shmid, K.Pauli, R.Stebler, K.Reusser va D.Petko texnologiya yordamida shaxsiylashtirilgan ta‘limni joriy etishning o‘quv sifatiga ta‘sirini o‘rganib, Yevropada bu yondashuvning asosan didaktik vosita sifatida qo‘llanilishini ko‘rsatadilar [19; 190]. Demak, G‘arb va Sharq an‘analarining, shuningdek zamonaviy va tarixiy qarashlarning qiyosiy tahlili orqaligina individual yondashuvning tarbiyaviy mohiyatini to‘liq ochib berish mumkin bo‘ladi, bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy tahlil usullariga asoslangan. Asosiy usullar sifatida ilmiy manbalarni qiyosiy-tahliliy o‘rganish, tarixiy-retrospektiv tahlil, tushunchalarni tasniflash va umumlashtirish qo‘llanildi. Tarixiy-retrospektiv usul g‘oyaning turli davrlardagi (antik davrdan XXI asrgacha) talqinlarini xronologik izchillikda kuzatish mumkin. Tahlil ob‘yekti sifatida

G'arb va Sharq pedagogik merosining individual yondashuvga oid manbalari (Ya.A.Komenskiy, I.G.Pestalotssi, K.D.Ushinskiy, L.S.Vygotskiy, Abu Nosir Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Abdulla Avloniy asarlari) tanlandi. Manbalarni tanlashda ikki mezon qo'llanildi:

birinchidan, g'oyaning tarixiy shakllanishini yorituvchi klassik pedagogik manbalarning mavjudligi;

ikkinchidan, muammoning zamonaviy holatini aks ettiruvchi so'nggi besh yillik (2021-2026) tadqiqotlarning mavjudligi. Kontent-tahlil usuli yordamida har bir manbadagi asosiy kontseptual g'oyalar ajratib olindi va ular umumiy nazariy model doirasida tizimlashtirildi. Shuningdek, tushunchalarni tasniflash usuli individuallashtirish, tabaqalashtirish va individual yondashuv atamalarining mazmuniy chegaralarini aniq belgilash uchun qo'llanildi. Tadqiqot davomida induksiya va deduksiya usullari uyg'unlashtirildi, xususiyl holatlardan (muayyan mutafakkir yoki tadqiqot misolida) umumiy nazariy xulosalarga, va aksincha, umumnazariy tamoyillardan aniq pedagogik vaziyatlarni tushuntirishga o'tish amalga oshirildi. Mazkur kompleks metodologik asos tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va amaliy ahamiyatini ta'minlashga xizmat qildi.

Natijalar va muhokama. G'oyaning ilk tizimli asosi Ya.A.Komenskiyning tabiatga muvofiqlik tamoyilida qo'yilgan ta'lim bola tabiatiga zid bormasligi kerak, aks holda u samarasiz bo'ladi [1; 18]. Bu asos shuni ko'rsatadiki, individual yondashuvning eng qadimiy shakli hali shaxsni emas, balki umuman bolalik tabiatini hisobga olishga qaratiladi. Biroq bu bosqichda yondashuv sinf-dars tizimining umumiy mantig'i doirasida, ya'ni yosh xususiyatlariga moslashish darajasida tushunilgan, alohida o'quvchining o'ziga xosligi hali alohida predmet sifatida ko'rilmagan. J.J.Russoning tabiiy tarbiya konsepsiyasi masalani shaxsiylashtirdi, biroq bu konsepsiya asosan individual ta'lim sharoitiga – bitta murabbiy va bitta o'quvchi munosabatiga – mo'ljallangan bo'lib, ommaviy maktab amaliyotiga to'g'ridan-to'g'ri tatbiq etilishi qiyin edi. I.G.Pestalotssi g'oyaga rivojlantiruvchi mazmun kiritdi. Ta'lim bola kuchini hisobga olishi emas, balki uni o'stirishi kerak, ya'ni pedagog nafaqat mavjud xususiyatlarni, balki rivojlanish salohiyatini ham diagnostika qilishi lozim [2; 27]. Bu qarash keyinchalik rivojlanuvchi ta'lim nazariyalari uchun nazariy ko'prik vazifasini o'tadi. K.D.Ushinskiy esa "Inson tarbiya predmeti sifatida" asarida pedagogik antropologiya asosini qo'yib, o'qituvchi bolani har tomonlama – jismoniy, ruhiy va axloqiy jihatdan – bilishi shartligini asosladi [3; 41]. Bu – individual yondashuvning diagnostik jihatini birinchi bo'lib ilmiy darajaga ko'targan yondashuv bo'lib, unda shaxsni bilish endi ta'lim natijasini yaxshilash vositasi emas, balki tarbiya jarayonining mustaqil sharti sifatida qaraladi.

XX asrda L.S.Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi haqidagi ta'limoti g'oyaning psixologik asosini yaratdi: yondashuv bolaning erishilgan darajasiga emas, uning potensialiga, ya'ni kattalar yordamida erishishi mumkin bo'lgan darajaga qaratilishi kerak [4; 84]. Bu nazariya individual yondashuvni statik diagnostikadan dinamik, rivojlanishga yo'naltirilgan jarayonga aylantirdi,

chunki endi pedagog nafaqat bolaning hozirgi holatini, balki uning rivojlanish istiqbolini ham hisobga olishi lozim edi. Keyinchalik I.Unt, A.A.Kirsanov va Ye.S.Rabunskiy individuallashtirishning didaktik tizimini ishlab chiqdilar, bunda individual xususiyatlar asosan o'quv topshirig'ining murakkablik darajasini belgilash uchun qo'llanildi. K.A.Tomlinsonning tabaqalashtirilgan ta'lim konsepsiyasi esa mazmun, jarayon va natija bo'yicha moslashtirishning amaliy modelini taklif etdi, bu model bugungi kunda ham ko'plab ta'lim tizimlarida qo'llanilmoqda. G.Gardnerning ko'p qirrali intellekt nazariyasi esa tafovutlarning tabiatiga yangi izoh berdi, har bir shaxsda intellektning turli shakllari nomutanosib rivojlangan bo'ladi, demak yagona standart baholash mezoni adolatsizlikka olib kelishi mumkin. Zamonaviy Yevropa tadqiqotlarida bu yo'nalish davom ettirilmoqda. R.Shmid va hamkasblarining tadqiqotida texnologiya yordamida shaxsiylashtirilgan ta'limni joriy etish o'qitish sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, biroq Yevropa maktablarida bu atama "individual o'rganish" inglizcha davlatlarga qaraganda kamroq institutsionallashtirilganligi ko'rsatilgan [19; 191]. Bu kuzatuv shuni tasdiqlaydiki, individuallashtirish g'oyasi hatto bugungi kunda ham mintaqadan mintaqaga har xil institutsional shaklda namoyon bo'ladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda individuallashtirish, tabaqalashtirish va shaxsiylashtirilgan ta'lim tushunchalarining nisbati

Ilmiy adabiyotda uchta yaqin tushuncha ko'pincha almashtirib qo'llanadi: individuallashtirish, tabaqalashtirish va shaxsiylashtirilgan ta'lim. Tadqiqotda bu uch tushunchaning farqi AQSH Ta'lim vazirligi taklif qilgan asos yordamida ochib berilgan. Individuallashtirish va tabaqalashtirish belgilangan o'quv maqsadlariga turli vosita va sur'at orqali erishishga qaratilgan bo'lsa, shaxsiylashtirilgan ta'limda hatto maqsad, mazmun va usulning o'zi ham har bir o'quvchining xususiyatlaridan kelib chiqib shakllanadi [20; 3]. Bu farqlash muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega, chunki u individual yondashuvni faqat "individual ish shakli" sifatida emas, balki maqsad qo'yish falsafasi sifatida ko'rish zaruratini ko'rsatadi. Xuddi shunday, tabaqalashtirish ko'rsatma va mazmunni o'quvchi imkoniyatlariga moslashtirishga qaratilgan bo'lsa, individuallashtirish o'rganish sur'ati va murakkablik darajasini har bir o'quvchi uchun alohida belgilashga xizmat qiladi. Ushbu chegaralash tadqiqotimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u individual yondashuvni pozitsiya sifatida ko'rish uchun zaruriy tushunchaviy asos yaratadi. Agar individuallashtirish va tabaqalashtirish jarayon yoki usul bo'lsa, unda individual yondashuv jarayon ham, usul ham emas, balki o'qituvchining kasbiy pozitsiyasi bo'lib, u har ikki jarayonning tagida yotadi.

Markaziy Osiyo va MDH mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlarda ham shunga yaqin xulosalarga kelinadi. Tadqiqotlarda kichik maktab o'quvchilarining intellektual-ijodiy salohiyatini rivojlantirishda individual yondashuv keng tarbiyaviy tamoyil sifatida talqin qilinadi, unda har bir

bolaning individuallashtirilgan ehtiyoji va imkoniyati ta'lim va tarbiya usullari hamda shakllarining moslashuvchan kombinatsiyasi orqali hisobga olinadi [18; 42]. Bu ta'rif e'tiborga molik, chunki unda individual yondashuv aniq bir metodika emas, balki "keng tamoyil" sifatida belgilanadi, bu bizning tadqiqotimizdagi "kasbiy pozitsiya" tushunchasiga yaqin turadi. Qirg'iziston Respublikasi Ta'lim vazirligining profilli ta'lim bo'yicha tahliliy hujjatida esa individuallashtirish tushunchasi ta'lim jarayonining tuzilishi, mazmuni va tashkil etilishidagi o'zgarishlar orqali o'quvchining qiziqishi, moyilligi va qobiliyatlarini hisobga olish sifatida belgilanadi, biroq amaliyotda kichik guruhlar uchun zarur infratuzilma va kadrlar yetishmasligi sababli maktablar to'liq individuallashtirish o'rniga "profilli sinf" modeliga murojaat qilishga majbur bo'lishi qayd etiladi [18; 3]. Ushbu amaliy cheklov shuni ko'rsatadiki, individual yondashuv g'oyasi nazariy jihatdan qanchalik mukammal ishlab chiqilmasin, uning amaliy tatbig'i moddiy-tashkiliy sharoitlarga bevosita bog'liq bo'lib qoladi, bu esa nazariy tadqiqotlar bilan bir qatorda amaliy-tashkiliy tadqiqotlarning ham zarurligini ko'rsatadi.

Sharq pedagogik merosida individual yondashuvning axloqiy-munosabat tekisligidagi talqini

Sharq an'anasida g'oya boshidanoq axloqiy-qadriyatli o'lchov bilan bog'liq holda rivojlangan. Abu Nosir Forobiy insonlarning tabiiy moyilligi turlicha ekanligini ta'kidlab, har kimni o'z tabiatiga mos faoliyatga yo'naltirish zarurligini asoslagan, bunda inson kamoloti faqat o'ziga xos qobiliyatini anglash va rivojlantirish orqaligina mumkin bo'ladi [7; 112]. Bu qarash G'arb an'anasidagi "tabiatga muvofiqlik" tamoyiliga mazmunan yaqin turadi, biroq unda urg'u ko'proq insonning ijtimoiy-axloqiy vazifasini topishga, ya'ni jamiyatdagi o'rnini anglashga qaratiladi. Abu Ali ibn Sino ta'limda bolaning yoshi, salohiyati va mizojini hisobga olishni, shuningdek uni tengdoshlari orasida o'qitishni tavsiya etgan, chunki tengdoshlar muhiti bolaning tabiiy raqobat va taqlid orqali rivojlanishiga xizmat qiladi [8; 67]. Bu tavsiya diqqatga sazovor, chunki unda individual yondashuv ijtimoiy muhitdan ajratilgan holda emas, balki guruh ichidagi munosabatlar tizimida amalga oshirilishi kerakligi ta'kidlanadi – bu zamonaviy ijtimoiy-pedagogik yondashuvlarning ilk ko'rinishi sifatida baholanishi mumkin. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida masala muloqot odobi tekisligiga ko'chadi: nasihatni kimga, qachon va qanday ohangda aytish kerakligi batafsil bayon qilingan, ya'ni bir xil nasihat turli shaxslarga turlicha shaklda yetkazilishi lozimligi asoslanadi [9; 58]. Bu yondashuv individual yondashuvning kommunikativ o'lchovini ochib beradi: muhim bo'lgan nafaqat NIMA o'rgatilishi, balki QANDAY va QACHON yetkazilishidir.

Abdulla Avloniy esa tarbiyada so'zning shaxsga ta'sir kuchini alohida qayd etgan va tarbiyachining har bir tarbiyalanuvchi uchun alohida so'z va uslub topa bilishi zarurligini ta'kidlagan [13; 24]. Ko'rinadiki, Sharq merosida individual yondashuv ta'lim texnikasi emas, ustozning shogirdga munosabati madaniyati sifatida talqin qilingan – bu zamonaviy tadqiqotlar

keyinchalik “pedagogik pozitsiya” deb atagan hodisaga juda yaqin turadi. Bu o‘xshashlik tasodifiy emas. Ikkala an’anada ham individual yondashuv, avvalo, kattalar (ustoz, murabbiy, ota-ona) tomonidan kichikka nisbatan axloqiy mas’uliyat sifatida tushunilgan, texnologik jarayon sifatida emas. Shu bilan birga, farq ham mavjud. G‘arb an’anasi bu mas’uliyatni asta-sekin ilmiy-metodik tizimga aylantirgan bo‘lsa (diagnostika, o‘lchov, model), Sharq merosi uni ko‘proq axloqiy-intuitiv, ustoz shaxsiy tajribasi va donoligiga tayangan shaklda saqlab qolgan. Ushbu ikki an’ananing qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy tarbiya nazariyasi uchun eng samarali yo‘l ularning integratsiyasidan iborat. G‘arbning ilmiy-diaagnostik qat’iyligini Sharqning axloqiy-munosabat chuqurligi bilan uyg‘unlashtirish orqaligina individual yondashuvning to‘liq mazmuni ochilishi mumkin.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, individual yondashuv nazariyasi asosan didaktik material asosida ishlab chiqilgan. Tarbiya jarayoniga u ko‘pincha avtomatik ko‘chiriladi, holbuki ikki jarayonning mantig‘i bir xil emas. Quyidagi jadvalda asosiy tafovutlar umumlashtirilgan:

1-jadval. Ta’lim jarayonidagi individuallashtirish va tarbiya jarayonidagi individual yondashuv o‘rtasidagi mazmuniy tafovut

Mezon	Ta'lim jarayonida individuallashtirish	Tarbiya jarayonida individual yondashuv
Diagnostika manbai	Bilim, ko‘nikma va o‘zlashtirish darajasi (test, nazorat ishi)	Xulq-atvor, motiv, qadriyat va munosabatlar tizimi
Natijaning namoyon bo'lish muddati	Nisbatan tez, o'lchash mumkin	Kechikkan, uzoq muddatli, bilvosita kuzatiladi
O'lchash imkoniyati	Yuqori (ball, reyting)	Past, sifat ko'rsatkichlari ustun
O'qituvchi pozitsiyasi	Metodik-texnologik vosita sifatida qo'llaydi	Kasbiy pozitsiya sifatida namoyon bo'ladi
Asosiy tayanch nazariya	Didaktik tizimlar, tabaqalashtirish nazariyasi	Pedagogik antropologiya, aksiologiya

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarbiya jarayonida individual yondashuv diagnostikasi murakkabroq, natijasi esa kechikkan holda namoyon bo‘ladi, shu sababli uni test yoki nazorat ishi kabi standart vositalar bilan o‘lchash amalda imkonsizdir. Aynan shu sabab amaliyotda o‘qituvchi oson o‘lchanadigan didaktik modelga qaytadi va tarbiya darsini fan darsi mantig‘ida olib boradi, ya’ni tarbiyaviy mazmunni ham baholash varag‘i, ball va reyting tiliga tarjima qilishga urinadi. Bu

amaliyot metodik jihatdan qulay ko‘rinsa-da, tarbiya jarayonining o‘ziga xos mohiyatini – uzoq muddatli, bilvosita va ko‘p omilli xarakterini – buzadi. M.A.Zokirov ta’kidlaganidek, adaptiv o‘quv texnologiyalari va sun‘iy intellektga asoslangan vositalar individual yondashuvni amalga oshirishning yangi imkoniyatlarini ochadi, biroq bu texnologiyalar asosan bilim va ko‘nikmalarni diagnostika qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, qadriyat va munosabatlar sohasida ularning imkoniyati cheklangan [11; 155]. Bu kuzatuv texnologik yechimlarning tarbiya sohasidagi chegarasini ko‘rsatadi. Raqamli vositalar qanchalik takomillashmasin, ular o‘qituvchi-tarbiyachining shaxsiy munosabatini to‘liq o‘rnini bosa olmaydi. Ushbu tafovutning bo‘lajak o‘qituvchi tayyorgarligi mazmunida ochiq bayon qilinishi zarur, aks holda yosh mutaxassislar tarbiya jarayonini ham ta‘lim jarayoni mantig‘ida tashkil etishga moyil bo‘lib qoladi.

Ushbu mazmuniy tafovutni bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorgarligi tizimida hisobga olish amaliy jihatdan bir necha yo‘nalishni talab qiladi. Birinchidan, pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida individual yondashuvni alohida mavzu sifatida emas, balki barcha pedagogik-psixologik fanlar orqali “ko‘ndalang” tarzda singdirish zarur, chunki u alohida ko‘nikma emas, balki kasbiy dunyoqarashning tarkibiy qismidir. Ikkinchidan, amaliyot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarga nafaqat o‘quv, balki tarbiyaviy vaziyatlarni ham tahlil qilish va har bir tarbiyalanuvchi uchun individual yondashuv strategiyasini loyihalashtirish topshiriqlari berilishi lozim. Uchinchidan, o‘qituvchilarni malaka oshirish tizimida individual yondashuvning tarbiyaviy o‘lchovini alohida modul sifatida kiritish, unda Sharq va G‘arb pedagogik merosidagi tegishli g‘oyalarni qiyosiy o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Bunday kompleks yondashuv orqaligina individual yondashuv g‘oyasi nazariy mavhumlikdan chiqib, bo‘lajak o‘qituvchining amaliy kasbiy pozitsiyasiga aylanishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, individual yondashuv g‘oyasi pedagogik ta‘limotlar tarixida tabiatga muvofiqlik – shogird mizojini hisobga olish – rivojlantiruvchi yondashuv – tabaqalashtirilgan ta‘lim yo‘nalishida rivojlangan. G‘arb an‘anasi g‘oyani asosan didaktik-texnologik tekislikda, Sharq an‘anasi esa axloqiy-munosabat tekisligida talqin qilgan, ularning integratsiyasi zamonaviy tarbiya nazariyasi uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, individuallashtirish, tabaqalashtirish va individual yondashuv tushunchalari zamonaviy ilmiy adabiyotda ko‘pincha aniq chegaralanmagan holda qo‘llaniladi, holbuki ularning har biri o‘ziga xos nazariy va amaliy vazifaga ega. O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, MDH va Yevropa olimlarining tadqiqotlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, individuallashtirish va tabaqalashtirish asosan o‘lchanadigan ta‘lim natijalariga yo‘naltirilgan bo‘lsa, individual yondashuv jarayon yoki usul emas, o‘qituvchining kasbiy pozitsiyasidir; shu bois u ko‘nikma sifatida emas, kasbiy sifat sifatida shakllantirilishi lozim.

Tarbiya jarayonidagi individual yondashuv ta'lim jarayonidagisidan diagnostika manbai, natijaning namoyon bo'lish muddati va o'qituvchi pozitsiyasi bo'yicha farq qiladi, bu tafovut bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash mazmunida alohida ajratilishi kerak. Amaliy tavsiya sifatida quyidagilarni ilgari surish mumkin:

pedagogika ta'limi dasturlarida individual yondashuvni mustaqil modul sifatida emas, balki barcha fanlar orqali singdiriladigan kasbiy pozitsiya sifatida shakllantirish;

amaliyot davomida tarbiyaviy vaziyatlarni tahlil qilish topshiriqlarini kengaytirish;

malaka oshirish tizimida Sharq va G'arb pedagogik merosini qiyosiy o'rgatishni joriy etish. Tadqiqotning istiqbolli yo'nalishi – tarbiya darslarini individual yondashuv asosida tashkil etishning aniq pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni bo'lajak o'qituvchilarda shakllantirish yo'llarini empirik tadqiqotlar orqali sinovdan o'tkazishdan iborat..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Коменский Я.А. Великая дидактика // Избранные педагогические сочинения. – М.: Педагогика, 1982. – С. 5-38.
2. Песталотти I.G. Избранные педагогические сочинения. – М.: Педагогика, 1981. – С. 12-45.
3. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания: Опыт педагогической антропологии. – М.: Педагогика, 1990. – С. 20-55.
4. Вйготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика-Пресс, 1996. – С. 78-96.
5. Tomlinson C.A. The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. – Alexandria: ASCD, 1999. – P. 1-16.
6. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983. – P. 60-70.
7. Abu Nosir Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – B. 108-115.
8. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari / Tanlangan asarlar. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B. 64-70.
9. Kaykovus. Qobusnoma / Fors tilidan tarjima. – Toshkent: Yozuvchi, 1994. – B. 55-61.
10. Rabunskiy Ye.S. Individualnyy podkhod v protsesse obucheniya shkolnikov. – М.: Педагогика, 1975. – С. 30-38.
11. Zokirov M.A. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonida individual yondashuvning ahamiyati va metodologiyasi // Zenodo. – 2026. – B. 152-157.
12. O'quvchilarga individual yondashuvning nazariyadagi ahvoli tahlili // Zenodo. – 2026. – B. 325-328.

13. Individual va differensial yondashuvlarning boshlang'ich ta'lim metodikasi bilan integratsiyasi // Zenodo. – 2025. – B. 1-8.
14. Talabalarga individual ta'lim yondashuvlari asosida intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish // Zenodo. – 2025. – B. 1-6.
15. Abdunazarova N.R. Talabalarning rus tilini o'zlashtirish jarayonida individual yondashuvning ahamiyati // Zenodo. – 2026. – B. 303-305.
16. Talabalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda individual yondashuvning nazariy asoslari // Zenodo. – 2025. – B. 1-9.
17. Inkluziv ta'limda til o'rganish jarayonlari: zamonaviy tadqiqotlar va yondashuvlar // Zenodo. – 2024. – B. 1-10.
18. Individual yondashuv orqali kichik maktab o'quvchilarining intellektual-ijodiy salohiyatini rivojlantirish: Avtoref. diss. / Abay nomidagi Qozog'iston Milliy pedagogika universiteti. – Almati, 2023. – B. 40-45.
19. Schmid R., Pauli C., Stebler R., Reusser K., Petko D. Implementation of technology-supported personalized learning–its impact on instructional quality // The Journal of Educational Research. – 2022. – Vol. 115, No. 3. – P. 187-198.
20. Introduction to Individualized, Differentiated, and Personalized Learning // ResearchGate. – 2025. – P. 1-9.